

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

О'ZBEKISTONDA HASHAROTLARNI O'RGANILISH TARIXI VA HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLAR, YECHIMLAR

Xoliqnazarov Begali Odinayevich

Termiz davlat pedagogika instituti b.f.n.dots.

Haydarkulova Gulhayyo Abdukarim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti magistri

gulhayyohaydarkulova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda hasharotlarning o'rganilish tarixi, hasharotlarning turini aniqlashda yuzaga kelayotgan muammolar bayon etilgan. O'zbekiston entomofaunasining dastlabki o'rganilish davrlari va taraqqiyoti, mustaqillik yillaridagi entomologik tadqiqotlarning taraqqiy etishi bayon etilgan.

Аннотация: В статье история изучения насекомых в Узбекистане описаны проблемы, возникающие при определении вида насекомых. Описаны начальные периоды изучения энтомофауны Узбекистана и ее развития, ход энтомологических исследований в годы независимости.

Annotation: The article describes the history of the study of insects in Uzbekistan, the problems that arise in determining the type of insect, the initial study period of the entomofauna of Uzbekistan, agricultural entomology, scientific study and development in Uzbekistan, the progress of entomological research in the years of independence.

Kalit so'zlar: hasharotlar, fitofag, zararkunanda, entomofaglar, o'rganilish davrlari, hasharotlar turini aniqlashdagi muammolar va zamonaviy yechimlar.

Ключевые слова: насекомое, фитофаг, вредитель, энтомофаг, периоды изучения, проблемы и современные решения в идентификации видов насекомых.

Key words: Insects, phytophagous, pest, entomophages, scientists, study periods, problems and modern solutions in identifying the type of insects.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida jahonda aholi soni ortib borishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda va bu O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q. Shuning uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik ekinlari hosiliga va sifatiga alohida e'tibor berishni talab etmoqda. Bularan kelib chiqib qishloq xo'jaligi ekinlariga va ularning hosiliga zarar yetkazadigan hasharotlarning turlar tarkibini, tashqi va ichki tuzilishi, tanasining mutanosib shakllanganligi,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

yashash tarzi, tashqi muhit bilan munosabati, zararli va foydali tomonlarini o'rganishni taqozo etmoqda.

Jahonda hasharotlarni ilmiy asosda o'rganish 1667-yilda T.Redii tajribalaridan boshlangan. Italiyalik olim I.Malpigi (1668) hasharotlar anatomiyasini o'rgangan. Hasharotlarni ilmiy asosda o'rganish O'zbekistonda XIX asrning 30-yillariga to'g'ri keladi va F.Gebler hamda E.Reyterlarning (1931) ilmiy asarlarida uchraydi. Zararkunanda hasharotlar ta'sirida ekinlar hosildorligi 10%-40% gacha kamayishi bu asarlarda qayd etilgan. O'zbekistonda hasharotlarni ilmiy asosda o'rganishni A.P.Fedchenko, V.F.Oshanin (1911) boshlab bergan. Toshkentda birinchi ilmiy entomologik stantsiya 1911-yilda ochilgan (hozirgi O'zbekiston o'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti). A.P.Fedchenko boshchiligida Turkiston faunasini o'rganish bo'yicha 1868-1871-yillardagi ekspeditsiyaning ilmiy xulosalari ham sohadagi tadqiqotlarning tamal toshi bo'ldi. Mintaqada zararli va foydali bo'g'imoyoqli hayvonlarni o'rganishni V.V.Yaxontov rejali tarzda boshladi. Fitopatolog A.A.Yachevskiy, entomologlar B.M.Vasilev va I.M.Vasilevlar ilk marta Murg'ob (1909) va Turkistonda (1911) hasharotlar faunasini o'rgandi. Keyinchalik bog'dorchilikka jiddiy zarar keltiradigan mevali bog'lar zararkunanda hasharotlarni o'rganish boshlab yuborildi. Bu borada P.P.Arangel'skiy (1917), V.P.Nevskiy (1929) ishlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga A.G.Davletshina, M.M.Doniyorova, R.P.Rakauskas, Ye.I.Valentyuk, G.X.Shaposhnikov, A.A.Sharov, L.S.Nekrasova, D.A.Belovlar (1925) tomonidan entomofaunaga doir fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sharqiy Zakavkaziya (Ayrapetov, 1940), Gruzziya, Ozarbayjon, Armaniston (Arakelyan, 1963), Moldaviya (Bichina, 1981), Bolgariya (Shikrenov, 1958) hamda Qrimda (Tkachuk, 1986) sitrus mevali bog'lardan anor zararkunandalariga qarshi kurashga oid tadqiqotlar olib borilgan.

B.M.Peregonchenko (1952) tomonidan Tojikiston sharoitida anor shirasiga qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ozarbaydijonda Olloxberdiev (1994) tomonidan Qorabog' hududida anor zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbekistonda mevali bog'larda zarar yetkazadigan hasharotlarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala edi.

XX asr ikkinchi yarmida hasharotlarning o'rganilishi

I.I.Lindt (1964) mevali bog'larda yashovchi tangachaqanotlilar turkumi vakillarining tarqalishi, biologiyasini tadqiq etib, rivojlanish xususiyatlarini o'rgangan.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

V.G.Kovalevskiy (1969) sitrus mevali daraxtlar zararkunadalarining biologiyasi va qarshi kurash chorolari haqida ma'lumotlar keltirgan. O.P.Kulkovning (1986) "O'zbekistonning subtropik mevali ekinlari" asarida O'zbekiston anor butasida uchraydigan zararkunandalar va anor mevaxo'ri haqida ma'lumotlar keltirilgan. V.V.Yaxontov (1962) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar esa, ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab zararkunanda hasharotlarni, jumladan anor butasida zararkunandalik qiladigan hasharotlarni o'rganish va qarshi kurash usullariga bag'ishlangan. Olimning ta'kidlashicha, anorning birlamchi zararkunandalaridan komstok qurti hisoblanib, u birinchi marta Toshkentda va uning atrofida topilgan. Komstok qurtining zararidan novdalar qing'ir – qiyshiq bo'lib, barglar sarg'ayadi va qurib qoladi. Komstok qurti anordan tashqari, shaftoli, katalpa, tutga shuningdek, makkajo'xori, kartoshka, sabzi, lavlagi, karam, pomidor, qovoq, tarvuz va boshqa o'simliklarga zarar yetkazadi. V.I. Piskunov tomonidan Gelechiidae oilasi vakillarining mevalariga keltiradigan zarari ilmiy asosda o'rganilgan. S.M.Pospelov, M.V.Arsenevalarning "O'simliklarni himoya qilish" asarida komstok qurtining biologiyasi va ekologiyasga oid hamda komstok qurtining dunyoning ko'p mamlakatlarida (Kavkazorti, Markaziy Osiyo va Qozog'istonda) uchrashi haqida ma'lumotlar keltirilgan. V.V.Pashchenko, K.B.Pashchenkolarning fikrlariga ko'ra, komstok qurti polifag zararkunandadir, 300 xil o'simlik turida yashashi, u anorning gulkosalariga o'rtnashib olib, o'sha yerga tuxum qo'yishi, natijada anor mevalari ifloslanib sifatsiz bo'lib qolishi qayd etilgan. O.P.Kulkovning (1986) "O'zbekistonning subtropik mevali ekinlari" asarida O'zbekistonda anor butasida uchraydigan zararkunandalar va anor mevaxo'ri haqida ham ma'lumotlar bayon etilgan.

O'zbekistonda Mustaqillik yillarida hasharotlarning o'rganilishi.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston olimlari tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunanda va foydali hasharotlarini fundamental va amaliy tadqiq etish borasida erishilgan natijalar ko'p jihatdan e'tirofga molikdir (M.I.Kosobutskiy, V.V.Yaxontov, Sh.T.Xo'jaev, G.Sh.Shomuratov, I.K.Maxnovskiy va b.). Jumladan, S.Alimuxamedov va Sh.Xo'jaevlar O'zbekistonda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Mualliflar zararkunanda hasharotlarning tez ko'payishiga yo'l qo'ymaydigan tejamkor agrotexnik tadbirlar ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Har xil asosiy ekinlar zararkunadalarining sistematik holati va turli sharoitda zarar yetkazish darajasi aniqlab berildi. P.A.Olimjonov "Entomologiya" nomli asarida anor

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

zararkunandalari haqida ma'lumot berib, cherves va qalqondorlar yoki koksidlilar (Coccinea) hasharotlarning teng qanotlilar turkumiga kirishi, Markaziy Osiyo va Qozog'iston maydonlarida 300 ga yaqin turi, shundan 30 dan ortiqroq turi mevali va ihota daraxtlarga, tut, tok, anor va anjirga jiddiy zarar yetkazishi bayon etilgan. Shuningdek, qalqondorlarning biologiyasi, morfologik belgilari va tarqalishiga oid ma'lumotlar bayon etilgan. Anor qurtining tarqalishiga va biologiyasiga oid ma'lumotlar X.X.Kimsanov, R.Sh.O'lmasboev, K.N.Xoshimovlarning asarlarida ham kelirilgan. Bog', tokzor va sabzavot, poliz ekinlarining zararkunanda hamda kasalliklardan himoya qilishga oid ma'lumotnomada anor zararkunandalarning morfologiyasi va hayot kechirishi, anor qurtining biologiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti mavjud bo'lib, unda qishloq xo'jaligi entomologiyasining barcha yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib boriladi. Xususan, bu institut bilan hamkorlikda va Toshkent Agrar Universiteti bilan Surxondaryoda A.F.Xaytmurodov asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari parazit va zararkunanda hasharotlarini o'rganib, "Qishloq xo'jaligi entomologiyasi" nomli darslik yozgan. Shuningdek, issiqxona zararkunandalari o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Hozirgi vaqtda hasharotlarni o'rganishda yuzaga kelayotgan muammolar.

Dunyo miqiyosida kechayotgan iqlim o'zgarishlari, tuproqlar degradatsiyasi, cho'llanish, urbanizatsiya jarayonlari, antropogen omillarning haddan ortiq ta'siri foydali hasharotlarning tarqalishiga salbiy ta'sir etmoqda va qirilib ketishiga sabab bo'lmoqda. Hasharot turlarining yetarlicha aniqlanmaganligi, aniqlanish usullarining to'liqroq ishlab chiqilmaganligi ham hasharotlarni o'rganishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar va respublikamizda hasharotlarni o'rganishga oid tadqiqotlarning ayrimlari mavjud bo'lib, biroq hududlarda foydalaniladigan yagona tadqiqot usullari Hozircha ishlab chiqilmagan. Bu agroekotizimlarda tarqalgan hasharotlarning turlar tarkibi, asosiy turlarning bioekologiyasini o'rganish, trofik aloqalarini tahlil etish hamda zararkunanda turlarga qarshi ilmiy asoslangan kurash chora-tadbirlarini takomillashtirishga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

XULOSA.

Buning yechimi sifatida jahonda va bir qator rivojlangan davlatlarda molekulyar biologik usullar asosida hasharotlarning turlarini aniqlashmoqda. Buning uchun

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

hasharotlarni aniqlashda asos bo'ladigan markerlarni aniqlash, ularni ajratib olish va turlarni aniqlashni yo'lga qo'yish asosiy muammo hisoblanadi. Tabiatda hasharotlar keng tarqalishiga asosiy sabab bo'ladigan namlik, yorug'lik va boshqa ekologik omillar kengroq o'rganish va undan parazit va zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashda foydalanish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оллобердиев С.Ш. Г. распространность гранатовой огневки-плодожорки и поврежденность растений ее в условиях Миль-Карабахской зоны. // Актуальные вопросы защиты сельскохозяйственных культур от вредителей, болезней и сорняков в Азербайджанской Республике. – Баку. -1991.-С. 116-120ст.
2. Ахмедов М.Х. (Homoptera, Aphidinea, Aphididae) аридногорных зон Средние Азии (ekologiya, faunogenez, taksonomiya).: Автореф. доктор. биол. наук. -Т. 1995. 45 ст.
3. Davletshina A.G. Три рода Aphis L. фауны Узбекистана. -: Наука, 1964. -134 ст.
4. Kapizova, D. R., Zokirov, I. I., Zokirov, K., & Sobirov, O. T. (2020). Sharqiy Farg'ona sharoitidagi dendrofil koktsidlar entomofaglarining bioekologik xususiyatlari. ADU. Ilmiy xabarnoma.– (8), 52s.
5. Пискунов В.И. Сем. Гледичиидае выемчатокрылые моли. - Определитель насекомых европейское части СССР. Чешуекрильные. - L.: Наука, 1981.-т. 4, . 2.-С. 659-748ст.
6. А.Ф.Хайитмуродов "Qishloq xo'jaligi Entomologiyasi "Fan ziyosi" nashryoti 3-7-bet.
7. Davlatovna, Hayitova Shahlo. "Values on the background of nutrition on seeds in grains F1-F2 correlation of economic characteristics." *Journal of Universal Science Research* 1.10 (2023): 230-233.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 09, Октябрь

| | |
|----------------|---|
| F.I.SH | Haydarkulova Gulhayyo Abdukarim qizi |
| Yo'nalish nomi | Biologiya 23-04 |
| Maqola nomi | O'zbekistonda hasharotlarning o'rganilish tarixi va hozirgi holati,muommolar,yechimlar. |
| Ish joy | Termiz shahar 4-maktab |
| Lavozim | Biologiya o'qituvchisi |
| Ilmiy daraja | Magistr |
| Mobil raqam | 90-074-60-10 |
| e-mail | Haydarkulovagulhayyoemail.com |